UDK: 82.039:392,613 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a106**

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI KISHI SOG‘LIGIGA TA’SIRI AKS ETGAN MAQOLLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ О ЕДЕ, ОТРАЖАЮЩИХ ВЛИЯНИЕ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PROVERBS ABOUT FOOD, WHICH REFLECT THE INFLUENCE ON HUMAN HEALTH

Omonov Qudrat Sharipovich[1], Abdullayeva Nozima Anvarxonovna[2]

[1]Omonov Qudrat Sharipovich – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

[2]Abdullayeva Nozima Anvarxonovna – Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada xalq maqollarining inson salomatligiga oid mazmun anglatuvchi turlari haqiqatda tibbiyotda o‘z aksini topishi, ularning ma’no-mazmuni salomatlikni asrash uchun aloqador ekanligi hamda lingvomadaniy jihatdan o‘ziga xosligini aniqlash maqsad qilib olingan. Maqollar tilshunoslikka oid izohli lug‘atlar hamda tibbiyotga oid manbalar yordamida o‘rganilib, izohlab chiqiladi. Tadqiqot natijasida xalq donoligining yillar osha sinalgan namunasi bo‘lgan maqollar haqiqatda tibbiyotda amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, xalq urf-odati, madaniyatining maqollardagi so‘zlarga ta’siri aniqlandi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq maqollari tibbiy jihatdan asoslangan bo‘lib, ularning ayrimlarini global miqyosda, ayrimlarini esa lokal miqyosda qo‘llash kishilar tibbiy savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Аннотация

Статья направлена на то, чтобы определить, действительно ли виды народных пословиц, относящихся к здоровью человека, отражаются в медицине, поскольку их значение имеет отношение к сохранению здоровья, а также лингвокультурную специфику. Пословицы изучаются и интерпретируются с использованием лингвистических толковых словарей, а также медицинских ресурсов. Исследование показало, что пословицы есть проверенный годами образец народной мудрости, действительно имеют практическое значение в медицине. Также, выявлено влияние народных обычаев, культуры на пословицы и поговорки. В заключение можно сказать, что народные пословицы основаны на медицине, и применение некоторых из них в глобальном масштабе, а некоторых- в локальном, будет иметь большое значение для повышения медицинской грамотности людей.

Abstract

The article aims to determine whether the types of folk proverbs related to human health are indeed reflected in medicine, as their meaning is relevant to health preservation as well as linguocultural specificity. Proverbs are studied and interpreted using linguistic explanatory dictionaries as well as medical resources. The research has shown that proverbs are a sample of folk wisdom tested over the years and do have practical significance in medicine. Also, the influence of folk customs, culture on proverbs and sayings is revealed. In conclusion, it can be said that folk proverbs are based on medicine, and the application of some of them globally and some of them locally will be of great importance to improve people's medical literacy.

Kalit so‘zlar: *maqol, salomatlik, lingvomadaniy, tibbiyot, xalq tabobati, asal, anor, sarimsoq.*

Ключевые слова: *пословица, здоровье, лингвокультурологик, медицина, народная медицина, мед, гранат, чеснок*

Key words: *proverb, health, linguocultural, medicine, folk medicine, honey, pomegranate, garlic.*

KIRISH

So‘nggi paytlarda madaniyatning tilga ta’siri alohida lingvomadaniyatshunoslik sohasida ko‘p tilshunoslar tomonidan o‘rganilmoqda. Soha rivojiga katta hissa qo‘shgan V.Gumboldt, A.Potebnya, lingvomadaniyatshunoslikda ko‘plab tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslovaning fikriga asoslanib, lingvomadaniyatshunoslik o‘rganadigan - ramz, mifologema, metafora, paremalar, nutqiy etiketlar asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi[2]. Maqolada paremiologik birlik hisoblangan maqollar tibbiy nuqtai nazardan o‘rganilishi shu kungacha o‘rganilgan ko‘plab tadqiqotlarning davomi bo‘ladi. Inson salomatligiga aloqador bo‘lgan maqollarda aks etgan madaniy o‘ziga xosliklar lingvistik jihatdan aniqlanib, ularning haqiqatda tibbiy asoslanganligi manbalar orqali o‘rganib chiqilishi xalq maqollarining qay darajada muhimligini ko‘rsatib beradi.

Paremiologik birliklar sifatida maqol va matallar ma’lum bir millatga aloqador bo‘lgan tushuncha va birliklarni jamlaydi. Masalan, o‘zbek xalq maqollaridagi qaynona-kelin, vatan va vatansizlik tushunchalari sharqona hayot tarzidan kelib chiqib paydo bo‘lgan. Ayniqsa, sog‘lom turmush tarzi va salomatlikni targ‘ib qiluvchi paremalar o‘zi tegishli bo‘lgan millatning yashash joyi, iqlim sharoiti, dini, urf-odatlari talab qiluvchi milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni so‘z va so‘z birikmalari yordamida ifodalaydi. Bu kabi paremalarning ayrimlari tadqiqotda ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot ishida o‘zbek xalq maqollarining quyidagi to‘plamlaridagi maqollardan foydalanildi: O‘zbek xalq maqollari [9]. Ushbu kitoblarda maqollar alifbo yoki mavzulashgan tartibda berilgan hamda Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlarning “Ma’nolar maxzani” [11], “Nega shunday deymiz? O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati” [12], “Hikmatnoma” [13] kitoblarida maqollarning izohi, qo‘shimcha sinonimlari va tarixiy kelib chiqishi yoritib berilgan.

Tibbiyotda maqollardan turli maqsadlarda foydalanilganligi ilmiy tadqiqotlar orqali aniqlanadi. Ulardan ayniqsa, chet el tadqiqotchi-olimlari miya jarohatidan so‘ng va aqliy hamda nutqiy faoliyatida nuqsoni bor bemorlar bilan ishlashda ularning ahvolini baholashda keng foydalanadilar (Catherine A Moran [1]. Michael S. Clark [8]. Lekin bu kabi tadqiqotlarda maqollarning leksik ma’nosiga emas, balki ularning she’rga o‘xshab ohangdorligi, metafora, metonimiyaga boyligi, eslab qolishga osonligi kabi sifatlarga ega ekanligi sababli ularni bemorlar qanday tushunishlari, eslab qolishlari yoki talaffuz qila olishlari nuqtai nazaridan tekshiruv vositasi sifatida foydalanilgan.

Maqolada tadqiqot markaziga olingan maqollarning tibbiyotga oid jihatlari esa o‘zbek tilidagi tibbiyot atamalarining “Salomatlik ensiklopediyasi” [10]; Ibn Sinoning “Tib qonunlari” [3]; Hakim Davoiy al Giloniyning “Favoyid ul inson” [5]; H.Hikmatullayev tahriri ostidagi “Sharq tabobati” [6]; I.To‘xtasinovning “Sinalgan davolar” [4] kabi kitoblar yordamida aniqlangan.

Maqolada aytib o‘tilgan kitoblardan, qo‘shimcha ilmiy manbalardan hamda internet materiallaridan foydalanib, mavzu tadqiq qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko‘plab dori-darmonlar, shifoxonalar, oziq-ovqat maxsulotlari va ichimliklar turlarining ortib borayotgani kishilarning salomatligi uchun xizmat qilish bilan birga uni yomonlashuviga ham sabab bo‘lmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun turli xalqlar og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan maqollarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi va to‘g‘ri ovqatlanish hamda dorivor o‘simliklar haqida ma’lumot beruvchi ko‘plab misollar ko‘rib chiqilishi kerak. Paremalar ya’ni maqol va matallar juda ko‘p sohalarga oid bo‘lib, ular o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llab kelinadi. Tibbiyotga oid maqollarda inson salomatligi uni asrash uchun kerakli bo‘lgan qimmatli maslahatlar beriladi.

Salomatlikka oid xalq maqollari kasallik darajasi, turi, mijozi, bemorning yoshi, yil fasli, mamlakatiga qarab farq qilishi va amaliyotda qo‘llanishi mumkin.

Ushbu maqollar meva, sabzavot, ko‘katlar, un mahsulotlari, turli oziq-ovqatlar, shirinliklar ularning inson salomatligiga foyda-zararlari shuningdek, ovqatlanishning maqbul vaqtiga aloqador kontentlarni o‘z ichiga oladi. Quyida shunday maqollarning ayrimlari ko‘rib chiqiladi.

*Kasalga **asal** ham bemaza tuyiladi/ Keksalikda yopishsa kasal, Na bo‘lamiq yoqar, na **asal*** maqollarida asal qay darajada shirin bo‘lishiga qaramasdan, tani sog‘ bo‘lmagan odamga bemaza tuyilishi aytiladi. Ushbu maqolda nega aynan asal ishlatilganligini taftish qilib ko‘rilsa, o‘zbek xalqida asal juda ko‘p kasalliklarga dori sifatida xalq orasida qo‘llanib kelinishi aniqlanadi. O‘zbek tilining “Izohli lug‘ati”da asal- arab. O‘simliklar gulidagi shira, nektarning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo‘ladigan shirin, suyuq oziq maxsuloti deb izoh beriladi. Bundan tashqari, xalqda - shirin, totli,yoqimli,sevimli qiz bo‘lsin deb qizlarga Asal ismini qo‘yishadi. O‘zbek tilidagi “Salomatlik ensiklopediyasi”da esa asalga izoh berilar ekan, uning tarkibi, turlari va xususiyatlaridan tashqari, inson organizmida uchraydigan nafas yo‘llari kasalliklari, yurak-tomir sistemasi, gastrit, jigar-buyrak kasalliklari, me‘da va o‘n ikki barmoq ichak yaralari, asab kasalliklari, bosh og‘rig‘i, tez charchash, ayrim ko‘z kasalliklarida turli shakllarda foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobida asalning turli kasalliklarni davolashda foydali ekanligi haqidagi maslahatlari keltiriladi. I.To‘xtasinov yuzni parvarishlash maqsadida ham asal va sut aralashmasidan foydalanish mumkinligi aytadi.

***Sarimsoq**, sarimsoq yeganning tani sog‘/ Och qoringa – achchiq sarimsoq* maqolida esa sarimsoqning kishi salomatligiga juda katta foydasi borligi, uning mikroblarga qarshi vosita sifatida, shamollashga qarshi, sovuq urganda, safarga chiqib aynigan suvni ichib qo‘yganda ichni tozalash uchun, asal, limon va sarimsoq aralashmasidan nafas qisishini davolashda, sarimoqni yog‘ga o‘rab xamir ichida pishirilgani, deydi, I.To‘xtasinov tanadagi barcha dardlarga shifodir.

Sarimsoq yetmish xil kasalga davo ekanligi, qonni tozalashi, xafaqonlikka yaxshi chora ekanligini Mahmudxon Maxdum “1001 tibbiy hikmat” [7] tarjima asarida aytib o‘tadi.

*Bir **anor** ming bemorga davo.* Maqolidagi anor so‘ziga fors. Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o‘simlik yoki uning ichi qizil yumaloq mevasi deb izoh beriladi. Anor, shuningdek, qiz bolalar ismi bo‘lib, mamlakatda keng tarqalgan, yuzida anori, ya’ni qizil dog‘i bor qizlarga yoki shunchaki anorning shirinligi, chiroyliligi va serdonaligiga qarab shunday ism beriladi. Anor xalq tabobatida ko‘ngil aynishni oldini olish uchun olma, behi, petrushka urug‘lari bilan bir qatorda ishlatiladi. Shuningdek, anor, yalpiz, turp urug‘i me’daga quvvat berishi aytiladi. Bundan tashqari, anor ishtaha ochuvchi, ovqat hazm qiluvchi, jigar kasali(gepatit), xafaqonlik, yo‘tal ketkazuvchi, ovozni muloyimlashtiruvchi, nordon anor esa ko‘z kasalligiga, og‘iz yarasiga, qichima kasalligiga, guli, mevasi, po‘stlog‘i, sharbati yoki suvidan belgilangan vaqtda va miqdorda qabul qilinsa, yaxshi samara berishligi Mahmudxon Maxdumning “1001 tibbiy hikmat” she’riy shakldagi tarjima asarida izohlab o‘tiladi.

XULOSA

Maqolada madaniy hamda tibbiy jihatdan ko‘rib chiqilgan *asal, sarimsoq va anor* ishtirokidagi maqollar o‘zbek xalq maqollarining salomatlikka oid turlari nafaqat millatning madaniy va milliy o‘zligini anglatibgina qolmasdan, balki ularni inson salomatligini asrashda yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilishini asoslab beradi. Xalq maqollari aniq tibbiy ma’lumotlar asosida vujudga kelgan bo‘lib ulardan kundalik hayotimizda aholi tibbiy bilimini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Catherine A Moran. Working memory and proverb comprehension in adolescents with traumatic brain injury: A preliminary investigation. Brain Injury, April 2006; 20(4): 417–423.
2. I.Darvishov. “Lingvokulturologiya” fanidan ma`ruzalar matni. – Namangan, 2021. – 4,6 bet.
3. Ibn Sino. “Tib qonunlari” . - T.: O‘ZRFA,1954y. I, II, III jild;
4. I.To‘xtasinov. “Sinalgan davolar”. - T.: Ibn Sino, 1992.- 23,36 bet.
5. Hakim Davoiy al Giloniy. “Favoyid ul inson”. - T.: 1991. –13, 67, 89 bet.
6. H.Hikmatullayev. “Sharq tabobati”. - T.: A.Qodiriy, 1994. - 5,32 bet.
7. Mahmudxon Maxdum. “1001 tibbiy hikmat”. - .T.: Fan va texnologiya, 2011. – bet 163/167.
8. Michael S. Clark. The Use of Proverb Interpretation in the Detection of Cognitive Deficits. Australian Journal of Human Communication Disorders Vol. 23 No.2 December 1994.
9. O‘zbek xalq maqollari. II tomli. - T.: O‘zbekiston fan nashriyoti, 1988.
10. “Salomatlik ensiklopediyasi”. - T., 1987. – bet 23.
11. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shoraxmedov. “Ma’nolar maxzani”. - T.: 2001.
12. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shoraxmedov. “Nega shunday deymiz? O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati” . – T.: G‘.G‘ulom, 1988.
13. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shoraxmedov. “Hikmatnoma”. - T.: G‘.G‘ulom , 1990. – bet 86, 123.